

**«IPAK YO‘LI» TURIZM VA MADANIY MEROS XALQARO
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.33/01.02.2022.I.145.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI

OSTONOV O‘TKIR YANGIBOYEVICH

**QISHLOQ TURIZMINI RIVOJLANTIRISH VA TASHKILY-IQTISODIY
MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH
(Samarqand viloyati misolida)**

08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

**IQTISODIYOT FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Samarqand – 2024

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
экономическим наукам**

**Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on economical
sciences**

Ostonov O‘tkir Yangiboyevich

О‘zbekistonda qishloq turizmini rivojlantirish va
tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish..... 3

Остонов Уткир Янгибаевич

Развитие сельского туризма в Узбекистане и
совершенствование организационно-экономических механизмов..... 25

Ostonov Utkir Yangibaevich

Development of rural tourism in Uzbekistan and
improving organizational and economic mechanisms 49

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works 53

**«IPAK YO‘LI» TURIZM VA MADANIY MEROS XALQARO
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.33/01.02.2022.I.145.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI

OSTONOV O‘TKIR YANGIBOYEVICH

**QISHLOQ TURIZMINI RIVOJLANTIRISH VA TASHKILY-IQTISODIY
MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH
(Samarqand viloyati misolida)**

08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

**IQTISODIYOT FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Samarqand – 2024

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.4.PhD/Iqt26 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Samarqand iqtisodiyot va servis institutida bajarilgan.
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb sahifasida (www.univ-silkroad.uz) va "Ziyonet" Axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: **Safarov Bahodirhon Shaxriyorovich**
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar: **Norchayev Asatullo Norbo'tayevich**
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Matyakubov Umidjon Raximovich
iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot: **Buxoro davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi "Ipak yo'li" turizm va madaniy meros xalqaro universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.33/01.02.2022.I.145.01 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil 27-aprel soat 10-30 daqiqa majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitet xiyoboni, 17-uy. Tel: (998 90) 213-89-07; Faks:(998 66) 240-67-68, e-mail: science-dept@univ-silkroad.uz, info@univ-silkroad.uz.

Dissertatsiya bilan "Ipak yo'li" turizm va madaniy meros xalqaro universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (11-raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 140104, Samarqand sh., Universitet xiyoboni, 17-uy. Tel.: (99866)240-67-68; Faks: (99866)240-67-68; e-mail: info@univ-silkroad.uz.

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil "___" - aprel kuni tarqatildi.
(2024-yil "_____" - apreldagi 11-raqamli reyestr bayonnomasi).

A.A.Eshtayev
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash raisi,
i.f.d., professor

X.I.Turdibekov
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash kotibi,
i.f.n., dotsent

O.M.Pardayev
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash qoshidagi
Ilmiy seminar raisi,
i.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda turizm iqtisodiy faoliyatning rivojlanayotgan tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Turizmning jahon xo'jaligi, shuningdek alohida davlatlar va mintaqalar iqtisodiyotiga ta'siri doimiy o'sish tendentsiyaga ega bo'lib, boshqa xizmat ko'rsatish tarmoqlarining rivojlanishiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Shu bois, turizm xizmatlarining diversifikatsiyalashishi aholining maxsus ehtiyojlarini qondirishga yo'naltirilganligida namoyon bo'ladi. Jumladan, barqaror iqtisodiyot sharoitida qishloq turizmining yuqori sur'atlar bilan rivojlanishi kuzatilmoqda. "Dunyo aholisining 45,3 foizi qishloq joylarida istiqomat qiladi va tabiiy-ekologik xilmaxillikga boy, qishloq xo'jaligi tarixan milliy an'analar asosida rivojlangan hududlarda turistlarning 35-45%i qishloq joylarda dam olishni afzal ko'radi"¹. Shu jihatdan ham bugungi kunda qishloq turizmini rivojlantirishning mintaqaviy xususiyatlari va istiqbolli yo'nalishlarini o'rganish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Jahonda qishloq turizmining rivojlanish xususiyatlari va tendensiyalarini aniqlash, ayniqsa, qishloq resurslaridan samarali foydalanish, hududlar iqtisodiyotini barqaror rivojlantirish bo'yicha qator ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Bu borada hududlarda barqaror rivojlantirishning iqtisodiy yo'nalishlari va uslubiy yondashuvlarini ishlab chiqish, qishloq resurslaridan samarali foydalanish, turistik mahsulotni diversifikatsiyalash, qishloqlarda turizm infratuzilmasini modernizatsiya qilish, qishloqlar turistik salohiyatini baholash usullarini takomillashtirish, qishloqlarda turizm obyektlarni yangi raqamli texnologiyalar asosida restavratsiya qilish va hududlarda turizmni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, davlat xususiy sherikchiligini jalb qilish, "turizm qishloq"larida yangi turistik marshrutlarni ishlab chiqish hamda ekonometrik modellardan foydalangan holda turizm sohasini istiqboli ko'rsatkichlarini bashoratlash kabi masalalarga alohida e'tibor berilmoqda. Jahonda turizmni barqaror rivojlantirishda qishloq turizmi resurslaridan samarali foydalanish va iqtisodiy mexanizmini takomillashtirishda asosiy to'siq bo'lib kelayotgan muammolarni aniqlash va ularning samarali yechimlarini ishlab chiqishga qaratilgan tadqiqotlarini o'tkazish hozirgi davrda turizmni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlardan biri hisoblanadi.

Yangi O'zbekistonda turizm sohasining zamonaviy talablar asosida barqarorligini ta'minlashda qishloq turizmini samarali rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. «Turizm – bu ham investitsiya, ham eksport, ham yangi ish o'rinlari va kambag'allikni qisqartirish degani. Shuning uchun har bir hududda bu sohaga jiddiy e'tibor qaratib, ko'proq sayyohlarni jalb etish kerak»². Bu, o'z navbatida, qishloq hududlarining turizm infratuzilmasini modernizatsiyalashning ustuvor yo'nalishi hisoblanadi. Shu bois, qishloq hududlarida turizmni samarali rivojlantirish imkoniyatlaridan maqsadli va samarali foydalanish, xizmat ko'rsatish

¹ <https://www.unwto.org/news/unwto-invites-applications-for-best-tourism-villages-2022>.

² O'zbekiston Respublikasi Prezident raisligida mamlakatimizning ichki va tashqi turizm salohiyatini yanada oshirish chora-tadbirlari yuzasidan videosektor yig'ilishi ma'ruzasi. 19 sentabr 2022 yil / Yangi O'zbekiston. 2022 yil 19 sentabr.

resurslari samaradorligini oshirish, iqtisodiy, tibbiy va ijtimoiy modellar asosida qishloq turizmini barqaror rivojlanish, turizm salohiyati yuqori bo'lgan hududlarda "turizm qishloq"larini tashkil qilish ishlarini jadallashtirish, qishloqlarning tabiati, etnografiyasi, tarixi, o'ziga xosligini ochib berish, turizm qishlog'idagi xonadonlarni har xil yo'nalishlar, jumladan hunarmandchilik, uy mehmonxonalari va ovqatlanish shahobchalariga moslashtirish, hududlarning turistik salohiyati va qishloq turizmini rivojlantirish ko'rsatkichlarning prognoz hisob-kitoblarini ishlab chiqish hamda soha jozibadorligini oshirishning istiqbollari bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 2 dekabrda PF-4861-son "O'zbekiston Respublikasining turizm sohasini jadal rivojlantirishni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 5-yanvardagi PF-5611-son "O'zbekiston Respublikasida turizmni jadal rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risidagi", 2021-yil 9-yanvardagi PF-6165-son "O'zbekiston Respublikasida ichki va ziyorat turizmini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi, 2024-yil 12-yanvardagi PF-9-son "Respublikaga xorijiy turistlar oqimini keskin oshirish hamda ichki turizmni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2022 yil 30 apreldagi PQ-232-sonli "Ichki turizm xizmatlarini diversifikatsiya qilishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" Farmonlari, 2024 yil 12 yanvardagi PQ-21-sonli "O'zbekiston Respublikasida ekologik turizmni jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida", O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 30-sentabrdagi 828-sonli Qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 30-iyundagi 450-son "2017-2019 yillarda Samarqand shahri va Samarqand viloyatining turizm salohiyatini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalarni rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishining I. «Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-ahloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish» ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Qishloq turizmini rivojlantirishni nazariy-metodologik masalalari xorijlik olimlar E. Wanda George, H. Mair, D.G. Reid, F.Muane, L.S. Sidali, A. Spiller, B. Schulze, T.E. Gvarliani, A.N. Borodin, A.D. Chudnovskiy va M.A. Jukova³, shuningdek V.I.Azar, C.YU.Tumanov,

³ E. Wanda George, H. Mair, D.G. Reid- Rural Tourism Development: Localism and Cultural Change (Tourism and Cultural Change) / -Bristol, Buffalo, Toronto: Channel View Publications, 2009. - 288 p., F.Muane. Tourism rural / - Paris : Agricole, 2012. - 430 p., L.S. Sidali -.Food, Agri-Culture and Tourism: Linking Local Gastronomy and Rural Tourism: Interdisciplinary Perspectives / L.S. Sidali, A. Spiller, B. Schulze. - Heidelberg, Dordrecht, London, New York: Springer Science, 2011. - 197 p., T.E. Гварлиани, А.Н. Бородин - Сельский и аграрный туризм как специфические виды туризма - 2011. - 9 т. № 4. - с. 61-65. А.Д. Чудновский, М.А. Жукова - Управление потребительскими предпочтениями в сфере отечественного туризма и гостеприимства и основные

I.T.Balabanov, A.I.Balabanov, M.A.Jukova, N.I. Kabushkin, M.B.Birjakov, V.I.Nikiforov, V.S.Novikovlarning⁴ ilmiy ishlarida kuzatish mumkin. Qishloq turizmining turli masalalari bo'yicha mamlakatimiz olimlaridan Q.X.Abduraxmonov, M.Q.Pardayev, A.A.Eshtayev, I.S.Tuxliyev, M.T. Aliyeva, A. N. Norchayev, A. T. Mirzayev, O.M.Pardayev, B.X.To'rayev, O.X.Xamidov, N.S.Ibragimov, B.Sh.Safarov⁵ kabi iqtisodchi olimlar ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borishgan.

Mamlakatimiz qishloq hududlaridagi mavjud turistik salohiyatdan samarali foydalanish, turizm sohasi barqarorligini ta'minlash, uning ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligini oshirishga doir ilmiy tadqiqot ishlari amalga oshirilgan bo'lsa-da, ularda hozirgi paytdagi ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar natijasidagi o'zgarishlar, samaradorligini baholash hamda innovatsion yondashuvlar asosida qishloq turizmini samarali rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi va usullarini takomillashtirish kabi masalalar yetarlicha o'z aksini topmagan.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Mazkur dissertatsiya tadqiqoti Samarqand iqtisodiyot va servis instituti "Turizm" kafedrasining №SAMISI17/2 "Turizmni rivojlantirishning nazariy va amaliy muammolari" mavzusidagi ilmiy-tadqiqot ishlari doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi hududlarda qishloq turizmini samarali rivojlantirishning usullarini hamda tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

qishloq turizmi bilan bog'liq tushunchalarning ijtimoiy-iqtisodiy mohiyatini asoslash;

направления реализации туристского продукта: учебное пособие - М.: Федеральное агентство по туризму, 2014. - 304 с.

⁴Азар В.И., Туманов С.Ю. Экономика туристского рынка. - М.: ИПКГ, 1998. - 239 с.; Балабанов И.Т., Балабанов А.И. Экономика туризма. Учеб. Пособие. - М.: Финансы и статистика, 2003. - 176 с.; Биржаков М. Б., Никифоров В. И. Индустрия туризма: Перевозки. -СПб., 2001. - 399 с.; Жукова М.А. Менеджмент в туристском бизнесе. Учебное пособие. - М.: КНОРУС, 2006. -160 с.; Кабушкин Н.И. Менеджмент туризма: Учебник. 4е изд., стереотип. Мн.: Новое знание, 2004. - 409 с.; В.С. Новиков. Инновации в туризме. Учебное пособие - М.: Туризм, 2010. - 203 с.

⁵ Абдурахмонов К.Х. Менеджмент туризма: Учебное пособие. - Т.: 2013.248 с.; Pardayev M.Q., Atabayev R. Turistik resurslarni tahlil qilish va baholash. Samarqand: SamISI, 2006. 137 b.; Eshtayev A.A. Globallashuv sharoitida turizm industriyasini boshqarishning marketing strategiyasi (O'zbekiston Respublikasi turizm tarmog'i misolida): iqtisodiyot fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. -S.: SamISI, 2019. - 250 b.; Tuxliyev I.S., Qudratov G'.X., Pardayev M.Q. Turizmni rejalashtirish. Darslik. - T.: "Iqtisod-Moliya" nashriyoti, 2010.238 b.; Alieva M.T. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida turizm xizmatlari sohasini boshqarishning iqtisodiy jihatlari (O'zbekiston Respublikasi misolida): iqtisodiyot fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. -S.: SamISI, 2019. - 255 b.; Norchayev A.N. Zamonaviy turizm infratuzilmasining shakllanish va rivojlanish tendentsiyalari.: iqtisodiyot fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. - T.: TDIU, 2021. - 246-b.; Mirzayev A.T. O'zbekistonda turistik-rekreatsiya faoliyatini boshqarish metodologiyasini takomillashtirish // iqtisodiyot fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan avtoreferat. - T.: TDIU, 2021. - 75-b.; Pardayev O. Menejment. O'quv qo'llanma .- T.: Iqtisodiyot dunyosi, 2021. - 164 b.; Тураев Б.Х. Организационно-экономические механизмы регионального туризма. - Т.: «Фан», 2009. 154 с.; Xamidov O.X. O'zbekistonda ekologik turizmni rivojlantirishni boshqarish mexanizmini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. - Samarqand.: SamISI, 2017.260 b.; Ibragimov N.S., Turistik hududni barqaror rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari // [Matn]: - Buxoro: Durdona nashriyoti 2020. - 204 b.; Safarov B.SH. Milliy turizm xizmatlar bozorini innovatsion rivojlantirishning metodologik asoslari // Monografiya. - T.: «Fan va texnologiya» nashriyoti, 2016. 184 b.

mamlakatimiz qishloq turizmini rivojlantirishga barqaror hamda potensial imkoniyatga ega turistik korxonalarining faoliyatini uyg'unlashtirish usularini takomillashtirish;

qishloq turizmini rivojlantirishning ilg'or xorijiy tajribasini o'rganish va uni mamlakatimizda qo'llashning iqtisodiy afzalliklarini belgilash;

qishloq turizmining xususiyatlari va uni rivojlantirish omillarini baholash;

hududlarda qishloq turizmi rivojlanishining hozirgi holatini tahlil qilish;

mamlakatimizda qishloq turizmini rivojlantirishning ekonometrik tahlilini o'tkazish orqali baholash;

Samarqand viloyatida qishloq turizmini rivojlantirish ta'sirini ekonometrik modellashtirish asosida usullarini takomillashtirish;

ekonometrik modellar yondashuvi asosida mamlakatimiz turizm sohasi barqaror rivojlanishini bashorat qilish bo'yicha takliflar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida mamlakatimiz, jumladan Samarqand viloyatida qishloq turizmi sohasida faoliyat ko'rsatayotgan ho'jalik yurutuvchi subyektlar olindi.

Tadqiqotning predmeti qishloq turizmi sohasidagi korxonalar samaradorligini oshirish bilan bog'liq ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar tizimidan iborat.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada analiz va sintez, abstrakt-mantiqiy tahlil, ekonometrika, kuzatish, sotsiologik so'rov, SWOT-tahlil, qiyoslash, korrelyasiya, regressiya, ekstropolyasiya, statistik va iqtisodiy tahlil usullaridan foydalaniladi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

“Samarqand - Yangi O'zbekistonning turizm darvozasi” ichki turizm dasturi asosida “Qishloqda ikki kun” deb nomlanuvchi mualliflik loyihasini amalga oshirish maqsadida har yili 500 mingdan ziyod o'quvchi, talaba, pensionerlar va mehnat jamoalarining Samarqandga sayohatini tashkil etish bo'yicha takliflar amaliy asoslangan;

turizm salohiyati yuqori bo'lgan hududlarda “Turizm qishloq”larini tashkil qilish ishlarini jadallashtirish maqsadida Urgut tumani “Tersak” turizm qishlog'i negizida «Etnoqishloq» konsepsiyasi va dizayn loyihasini yaratish asosida 135ta turizm mahallasini tadbirkorlar boshqaruviga berib, ularni tematik turizm qishloqlariga aylantirish bo'yicha takliflar ilmiy asoslangan;

“Qishloq turizmi”ni rivojlantirish maqsadida qishloqlarning tabiati, etnografiyasi, tarixi, o'ziga xosligini ochib berish hamda ushbu qishloqlarda istiqomat qiluvchi mahalliy aholi o'rtasida turizm sohasi targ'ibotini hamkorlikda amalga oshirish asosida “Ko'k-ota”, “Sarichashma”, “Gazira”, “Jo'yi Abbos”, “Mavlum” qishloqlarida o'ziga xos tabiat va agroturizm obyektlari bilan turistlarni tanishtirish uchun qulay sharoitlar yaratish negizida har kuni har bir qishloqda 50-60 ta xorijiy turistlarni qabul qila oladigan yangi turizm yo'nalishini tashkil etilish bo'yicha taklifi dalillangan;

Samarqand viloyati hududlarining turistik salohiyati va qishloq turizmini rivojlantirish ko'rsatkichlarning bashorat hisob-kitoblari asosida 2027 yilgacha bo'lgan o'rta muddatli prognoz parametrlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Samarqand viloyati qishloqlari hududida avtomobil yo'llari holatini yaxshilash, piyodalar o'tish yo'laklarini tashkil etish, oilaviy mehmon uylari va umumiy ovqatlanish shahobchalarini yaratishni nazarda tutuvchi qishloq turizmi yo'nalishlarini rivojlantirish asosida "Konigil" turizm qishlog'ida 20ga yaqin xonadonlarda har xil yo'nalishlar, hunarmandchilik uy mehmonxonalari va ovqatlanish shahobchalariga moslab tayyorlanishi hamda loyihaga binoan Siyob arig'i bo'ylab 800 metr uzunlikda piyodalar yo'lagini tashkil etish, hududda sayr va sayohat qilish uchun ot va eshak aravalar, 6, 8 va 10 kishilik velomobillar xizmatlarini yo'lga qo'yish bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan;

mamlakatimiz qishloq turizmini rivojlantirishning hududiy turistik klaster modeli ishlab chiqilgan. Ushbu model mamlakatimizda qishloq turizmini rivojlantirish va tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish natijasida milliy turizmni eng istiqbolli yo'nalishlari sifatida shakllanishiga xizmat qiladi;

qishloq turizmini tashkiliy jihatdan davlatning tartibga solish usullarni amaliyotda qo'llash va uni istiqbolli tarmoqlardan biriga aylantirishda davlat-sherikchilik asosida motivatsiya beruvchi davlat va xususiy sektor o'rtasidagi sherikchilik munosabatlarini rivojlantirishning davlat-maqсадli modeli va uni amaliyotga tatbiq etish mexanizmi ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tadqiqotda qo'llanilgan uslubiy yondashuv va usullarning maqsadga muvofiqligi axborot bazasining rasmiy manbalaridan, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm Qo'mitasi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligining statistik ma'lumotlari, Samarqand viloyati bo'limlari manbalaridan olinganligi taklif va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati dissertatsiyada ishlab chiqilgan nazariy va metodologik-uslubiy asoslar hududlarda qishloq turizmini samarali rivojlantirishga, milliy turizm mahsulotining jahon bozorida raqobatbardoshligini oshirishga hamda tahlil qilishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, ishlab chiqilgan takliflar va amaliy tavsiyalardan respublikada turizm xizmatlar bozorini rivojlantirishda investitsiyalarni jalb qilishning iqtisodiy mexanizmini takomillashtirishga, tarmoqni rivojlantirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni, hududlardagi turistik faoliyat bilan shug'ullanuvchi muassasalar faoliyatini takomillashtirishga doir tadbirlarni ishlab chiqishda, shuningdek, 2022-2027 yillarda Yangi O'zbekiston rivojlanish strategiyasining ustuvor yo'nalishi bo'yicha Taraqiyot strategiyasida belgilangan vazifalarni bajarish yuzasidan chora-tadbirlarni ishlab chiqishga muayyan darajada xizmat qilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Qishloq turizmini rivojlantirish va tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

“Samarqand - Yangi O‘zbekistonning turizm darvozasi” ichki turizm dasturi asosida “Qishloqda ikki kun” deb nomlanuvchi mualliflik loyihasini amalga oshirish maqsadida har yili 500 mingdan ziyod o‘quvchi, talaba, pensionerlar va mehnat jamoalarining Samarqandga sayohatini tashkil etish bo‘yicha amaliy asoslangan takliflar O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 26-apreldagi “Respublikaning turizm salohiyatini jadal rivojlantirish hamda mahalliy va xorijiy turistlar sonini yanada oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-35-sonli qarori ijrosini ta‘minlash 2023-yil 16-maydagi 140-7-0-Q/23 sonli «Yo‘l xaritasi» rejasiga kiritilgan (Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo‘mitasining 2023 yil 14 dekabrda 02-12-17-2075-sonli ma‘lumotnomasi). Natijada, Samarqand viloyatiga 2 mln. nafar mahalliy turistlar tashrifini tashkil etish imkoniyati vujudga keldi;

turizm salohiyati yuqori bo‘lgan hududlarda turizm qishloqlarini tashkil qilish ishlarini jadallashtirish maqsadida Urgut tumani “Tersak” turizm qishlog‘i negizida «Etnoqishloq» konsepsiyasi va dizayn kodini yaratish asosida 135 turizm mahallasini tadbirkorlarga boshqaruvga berib, ularni tematik turizm qishloqlariga aylantirish bo‘yicha ilmiy asoslangan takliflar O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 26-apreldagi “Respublikaning turizm salohiyatini jadal rivojlantirish hamda mahalliy va xorijiy turistlar sonini yanada oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-135-sonli qarori ijrosini ta‘minlash 2023 - yil 16 - maydagi 140-7-0-Q/23 sonli «Yo‘l xaritasi» rejasiga kiritilgan (Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo‘mitasining 2023 yil 14 dekabrda 02-12-17-2075-sonli ma‘lumotnomasi). Mazkur taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida turizm qishlog‘ining o‘ziga xosligi, aholi etnik hayoti va urf-odatlarini, kiyinish madaniyati, milliy taomlariga alohida e‘tibor qaratilishi natijasida turistlarga ko‘rsatiladigan xizmatlar hajmi ikki baravar oshgan;

qishloq turizmini rivojlantirish maqsadida qishloqlarning tabiati, etnografiyasi, tarixi, o‘ziga xosligini ochib berish hamda ushbu qishloqlarda istiqomat qiluvchi mahalliy aholi o‘rtasida turizm sohasi targ‘ibotini hamkorlikda amalga oshirish asosida “Ko‘k-ota”, “Sarichashma”, “Gazira”, “Jo‘yi Abbas”, “Mavlum” qishloqlarida o‘ziga xos tabiat va agroturizm obyektlari bilan turistlarni tanishtirish uchun qulay sharoitlar yaratish negizida har kuni har bir qishloqda 50-60 ta xorijiy turistlarni qabul qila oladigan yangi turizm yo‘nalishini tashkil etish bo‘yicha taklifi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 30 sentyabrda 828-son “Samarqand viloyatining turizm salohiyatidan samarali foydalanish va uni rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qaroriga asoslangan Samarqand viloyat hokimligining 2020-yil 13-apreldagi 06-06/437-sonli «Qishloqlarda agroturizmni rivojlantirish yuzasidan chora-tadbirlar rejasiga»ga kiritilgan (Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo‘mitasining 2023 yil 14 dekabrda 02-12-17-2075-sonli ma‘lumotnomasi). Mazkur takliflarni amaliyotga joriy etish natijasida qishloqlarda o‘ziga xos tabiat va agroturizm obyektlari bilan turistlarni tanishtirish uchun qulay sharoitlar yaratilganligi, marshrut dasturlari, har bir qishloq to‘g‘risidagi qisqacha ma‘lumotlar fotosuratlarini bilan broshyuralar ishlab chiqilishi, axborot markazlari

hamda turoperatorlar orqali agroturizm qishlog'ini targ'ib qilish imkonini bergan hamda turizm infratuzilmasini rivojlantirish choralarning natijaviyligi 10% oshirilgan;

Samarqand viloyati hududlarning turistik salohiyati va qishloq turizmini rivojlantirish ko'rsatkichlarning prognoz hisob-kitoblari asosida 2027 yilgacha bo'lgan o'rta muddatli ishlab chiqilgan prognoz parametrlarini qo'llash bo'yicha amaliy tavsiyalar Turizm qo'mitasi tomonidan ishlab chiqilgan «2023-2025 yillarda hududlarning turizm salohiyatini izchil o'rganish natijasida amalga oshirilishi rejalashtirilgan chora-tadbirlar» dasturi va «Yo'l xaritalari»ga kiritilgan (Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo'mitasining 2023 yil 14 dekabrda 02-12-17-2075-sonli ma'lumotnomasi). Natijada qishloq turizmi destinasiyalarida tegishli parametrlarni qo'llash hisobiga hududlarni rivojlantirish imkoniyatlari dalillangan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 4 ta xalqaro va 4 ta respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o'tgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 19 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 7 ta maqola, jumladan, 5 ta respublika va 2 ta xorijiy ilmiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Ishning umumiy hajmi 128 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida o'tkazilgan tadqiqotlarning dolzarbligi asoslangan, maqsadi va vazifalari, obykti va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi keltirilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning «**Turizm xizmatlari bozorida qishloq turizmini rivojlantirishning nazariy-uslubiy asoslari**» deb nomlangan birinchi bobida qishloq turizmini rivojlantirishning nazariy asoslari va ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati, «qishloq turizmi» tushunchasining ijtimoiy-iqtisodiy mazmuni, qishloq turizmini rivojlantirishning ilg'or xorijiy tajribasi va uni mamlakatimizda qo'llashning iqtisodiy afzalliklari hamda qishloq turizmining xususiyatlari va uni rivojlantirish omillari tadqiq qilingan.

Hozirgi zamon jahon xo'jaligining o'ziga xos xususiyatlaridan biri shundaki, turizm iqtisodiyotning eng tez rivojlanib borayotgan va yuqori daromad keltirayotgan istiqbolli tarmog'iga aylandi. Hisob-kitoblar shuni ko'rsatdiki, agar O'zbekistonda turizmdan keladigan daromadlarni yalpi ichki mahsulotdagi ulushi

5 foizga etkazilsa, bu tarmoqda band bo'lgan aholi soni ikki baravarga oshadi⁶. Oxirgi yillarda mamlakatimizda bu soha izchil rivojlanmoqda. Jumladan, 2022 yilda yurtimizga tashrif buyurgan xorijiy turistlar soni 2021 yilga nisbatan 3 baravar oshgan. 2022 yilda turistik xizmatlar eksporti ko'rsatkichi 1,6 mlrd. AQSH dollarini tashkil qilib, bu 2019 yilga nisbatan (1 mlrd. AQSH dollari) 26,1 foizga o'sgan. Ichki turizm dasturlari doirasida esa 11 milliondan ortiq aholi sayohat qilgan⁷.

Mazkur dissertatsiya doirasida amalga oshirilgan tadqiqotlar ham, ya'ni qishloq turizmini rivojlantirish va tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirishga oid masalalari ham ushbu tushunchani to'g'ri talqin etilishini talab qiladi. Ana shulardan kelib chiqqan holda, "qishloq turizmi", "turizm qishloqi", "qishloq turizmini rivojlantirish" tushunchalarining mohiyatini ochishga alohida e'tibor qaratdik. Nazariy izlanishlar bugungi kunda "qishloq turizmi" tushunchasining mohiyatini ochib berishga, unga mazmundor ta'rif berishga, turizmni turli belgilar asosida turlarga tasniflashga bag'ishlangan juda ko'p tadqiqotlar borligini ko'rsatdi. Ushbu tadqiqotlar mahalliy va xorijiy olimlar tomonidan amalga oshirilgan.

Qayd qilingan turizmning barcha turlari nomlanishi ham albatta tabiat va uning resurslarini eslatib turadi. Qayd qilingan talablardan ma'lum bo'ladiki, qishloq turizmi ko'p faoliyatlari jihatidan ekoturizmdan ancha farq qiladi. Qishloq turizmida turistlar qishloq aholisi (fermer, dehqon, cho'pon) bilan birga yashaydi, ko'p hollarda birga ishlaydi, ularning turmush kechirishi, hayot tarzi bilan qiziqadi. SHu jihatlardan ham qishloq turizmini ekoturizmga qo'shish noto'g'ri xulosalarni keltirib chiqaradi deb hisoblaymiz. Ilmiy adabiyotlarda qishloq joylarida dam olish bilan bog'liq ushbu tushunchaning mohiyatini aniqlash uchun turli xil yondoshuvlar va atamalar mavjud.


Yuqorida ta'kidlangan olimlarning nuqtai nazarlardan kelib chiqqan holda dissertatsiyada "qishloq turizmi" tushunchasiga mualliflik talqinidagi ta'rifi ishlab chiqildi: "Qishloq turizmi- deyilganda, xorijiy yoki mahalliy sayyohlarning shaharda yashash joyidan tashqarida, an'anaviy qishloq hayoti, urf-odatlarini, mahalliy qishloq obyektlari bilan tanishish, tabiat manzilida dam olish bilan bog'liq ehtiyojlarni qondirishga qaratilgan, qishloq aholisi uchun ish joylari va daromadlarni yaratish hamda, kirib kelayotgan valyutadan daromad olish imkoniyatiga ega iqtisodiy foyda keltiradigan - turistik faoliyat turi tushuniladi".

Tadqiqotda qishloq turistik resurslarini tasniflashda tabiiy resurslar yondoshuvidan kelib chiqdik. Buning asosiy sabablaridan biri qishloq hududida joylashgan qishloq xo'jaligiga xos mehnat, ibtidoiy mazmunga ega qishloq xo'jalik ishlab chiqarishi vositalaridan tortib (masalan qishloqda hozirgacha saqlanib qolgan omoch, suv tegirmoni, tosh tegirmon va b.) modernizatsiyalashgan qishloq xo'jalik texnika va texnologiyasi, qishloq daralari, daryolari, reliefi, qishloqda mavjud madaniy va nomadaniy yodgorliklar, qishloq urf -odatlarini, milliy an'ana va bayramlari, to'y-tomashlari, folklorini mavjudligi hisoblanadi. Shuning uchun

⁶ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligining ma'lumotlari asosida muallif tomonidan hisoblangan.

⁷ <https://wttc.org/Research/Economic-Impact> rasmiy statistik ma'lumotlari asosida muallif tomonidan hioblangan.

qishloq turizmini turistik resurslarini aniqlash va ularni tasniflashda ikkita xususiyatni hisobga olsak maqsadga muvofiq bo‘lishi mumkin deb hisoblaymiz. Bu birinchisi - qishloq turistik resursini kelib chiqishi va ikkinchisi – qishloq turistik resursini shakllanish belgisini e‘tiborga olishi lozim bo‘ladi. Tadqiqotimiz davomida belgilangan vazifalaridan kelib chiqib 1-rasmda qishloq turizmini turistik resurslarini turlarga ajratdik va quyidagicha tasvirladik.



1-rasm. Qishloq turistik resurslarning tuzilishi⁸

Tadqiqot ishida jahon mamlakatlari qishloq turizmining rivojlanish tendensiyalarini o‘rganish jarayonida, ayrim rivojlangan mamlakatlar tomonidan amalga oshirilgan bosqichlarda erishilgan natijalardan va ularning boy tajribasidan samarali foydalanilgan holda optimal ravishda o‘z taraqqiyotining sifat o‘zgarishlari va yangiliklar asosida jadallashtirishga harakat qilishi va borada e‘tiborga molik muvaffaqiyatlarni qo‘lga kiritganligi ma’lum. Shuningdek rivojlangan mamlakatlarda qishloq turizmining rivojlanishida Evropa mamlakatlarida mavjud dasturlarning ishlab chiqilganligi, qishloq turizmi bilan shug‘ullanuvchi turistik firmalarning faoliyati yuqori saviyada ekanligi, tizimlashtirilganligi, shuningdek hamkor tashkilotlar bilan ish faoliyati to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilganligi muhim jihati hisoblanadi.

Muallif dissertasiyaning bu bo‘limida rivojlangan xorijiy davlatlar tajribasi, turizm sohasini rivojlantirishda qishloq turizmni samarali rivojlantirishning va

⁸Ilmiy adabiyotlari ma’lumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirishi bo'yicha keng miqyosda tadqiqot ishlari olib borgan va tegishli xulosalar qilgan.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi «**Mamlakatimiz hududlarida qishloq turizmi salohiyati holati va unga ta'sir etuvchi omillar tahlili**» deb nomlangan bo'lib, hududlarda qishloq turizm rivojlanishining hozirgi holati, mamlakatimiz hududlarida qishloq turizmini rivojlantirish usullarini takomillashtirish va ularning ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlari tahlil etilgan bo'lib, mamlakatimizda qishloq turizmini rivojlantirishning klaster tizimi modeli va uni rivojlantirish ssenariylar tahlili hamda tendensiyalari muvofiq parametrlar bilan qiyosiy tahlil qilish asosida tadqiq etilgan.

Tadqiqotlar ko'rsatishicha, 2023 yilda mamlakatimizda qishloq aholi punktlari soni 11006 tani tashkil qilgan. Samarqand viloyati kesimida esa qishloq aholi punktlari soni 1854 tadan iborat⁹.

Tadqiqotimizda 2018-2022 yillar kesimida Samarqand viloyati misolida qishloq turizmini rivojlanish dinamikasini tahlil qildik. 2019 yilda boshlangan pandemiyasi turizm sohasiga, jumladan qishloq turizmining rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatganini ammo 2021 yildan boshlab qishloq turizmi maqsadida sayohat qilgan turistlar soni ikki baravarga o'sib borgan. Qishloq turizmi sohasida band xodimlar soni, qishloq turizmi subyektlari soni va qishloq turizmidan olingan daromadlar ham o'sish tendensiyasini mavjudligi aniqlandi.

1-jadval

2018-2022 yillarda Samarqand viloyatida qishloq turizmining rivojlanish holati¹⁰

№	Ko'rsatkichlar	Yillar:					2022 yilda 2018 yilga nisbatan o'zgarishi (+;-)
		2018	2019	2020	2021	2022	
1	Viloyatga tashrif buyurgan jami qishloq sayyohlarining soni, ming kishi	1420.2	1818.5	412.86	823.26	1534.4	+114,2
2	Qishloq turizmidan band xodimlar, kishi	525	623	560	684	741	+216
3	Qishloq turizmi subyektlari soni	34	63	51	59	76	+42
4	Qishloq turizmidan olingan daromad, mln.s	7,17	14,25	6,4	10,2	15,7	+8,53

2022 yil holatiga ko'ra Samarqand viloyatida joylashgan 1853 ta qishloq aholi punktlari obyektlaridan 53 tasida kichik qishloq mehmonxonalarini 1000 tasida agroturistik fermer turistik destinatsiyalari mavjudligi aniqlandi¹¹. Shuningdek boshqa qishloq turizmi obyektlaridan hunarmandchilik uylari mavjudligi kuzatildi. O'zbekiston Respublikasi statistik ma'lumotlarga ko'ra 2022 yilda qishloq turizmi bo'yicha sayohat uyushtirganlar soni 1,620 ming nafar sayyohni tashkil qiladi. Anketa so'rov natijalari qishloq hududlarida turist sifatida sayr qilish bir kundan uch kungacha muddatni tashkil qilganligini ko'rsatdi. O'zbekiston Respublikasi

⁹ Manba: www.uzbektourism.uz va Tourism in Uzbekistan 2022 statistik ma'lumotlari.

¹⁰ Samarqand viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan

¹¹ Samarqand viloyati Statistika Boshqaramasi ma'lumotlari asosida tayyorlandi.


mahalliy hokimliklar bergan ma'lumotlarga ko'ra 2022 yilda qishloq turizmi bo'yicha sayohat uyushtirganlar soni 1104,4 ming nafar kishini tashkil qiladi. Qishloq hududlarida turist sifatida sayr qilish bir kundan uch kungacha muddatni tashkil qilgan. O'rtacha sayyohlik muddati 1 kunni tashkil etgan holda qishloq turizmida Samarqand viloyatining band bo'lgan mahalliy aholisining o'rtacha daromadi bizning nisbiy baholashimizga ko'ra 310 mln. so'mni tashkil qiladi.

2-jadval ma'lumotlarining tahlili Samarqand viloyatida qishloq turizmini rivojlantirish uchun qulay qishloq turizmi hududini turli yo'nalishlari bo'yicha ichki imkoniyatlarga ega ekanligini ko'rsatdi. Masalan qishloq turizmi sarguzashtlari ishtirokida sayyohlik faoliyatini amalga oshirish niyatida bo'lgan mahalliy yoki xorijiy turist uchun "Tersak Torism village", "Omonqo'tan-Taxtiqoracha" darasi kabi qishloq turizmi maskanlarida tabiat bilan qo'shib ketgan qishloq turlarini tashkil etish mumkin.

2-jadval

Qishloq turizmida bir kunlik daromad ko'rsatkichlari¹²

№	Sayyohlar tashrif buyuradigan obyektlar	Umumiy qishloq turistlar soni, %	Turistlar soni, nafar	O'rtacha to'lov summasi, so'm (bir sutka uchun)	Qishloq turizmi obyektlaridan keladigan o'rtacha tushum (mln. so'mda)
1	Mintaqa markazidan	39	1200	100000	120
2	Mintaqaga yaqin tumanlar	20	800	100000	80
3	Boshqa mintaqalarda	15	500	100000	50
4	Toshkent va Xorazmdan	20	450	100000	45
5	Xorijiy sayyohlar	5	50	300000	150
6	Jami	100	3000		310



2-rasm. Samarqand hududidagi qishloq turizmi klaster modelini tuzilishi¹³

¹² Samarqand viloyati Statistika Boshqaramasi ma'lumotlari asosida tayyorlandi

Qishloq turizmi jarayonlarining rivojlanishini o'rganib, Samarqand hududidagi qishloq turizmi klaster modelini taklif etamiz (2-rasm). Tadqiqotlarimiz natijasida qishloq turizmini klaster modelini samaradorligini uning faoliyatini tahlil qilish asosida aniqlash mumkin degan xulosaga keldik. SHu sababli uni baholash bo'yicha ajratilgan ko'rsatkichlar bo'yicha qishloq turizmi klaster modelini rivojlanish koeffitsientidan foydalandik:

$$\mathbf{R}_d = \mathbf{T}/\mathbf{T}_{total} \quad (1)^{14}$$

Bunda R_d – tanlangan ko'rsatkich bo'yicha tadqiq etilayotgan davrda qishloq turizmi klaster modelini rivojlanish koeffitsienti;

T – qishloq turizmiga turistlarning talabini oshib borishi;

T_{total} - qishloq turizmiga turistlarning talab ko'rsatkichini umumiy miqdori (ko'rsatkich o'zgarishlarida nolga teng bo'lgan holat).

Taklif etilgan va shakllantirilgan ko'rsatkichlar to'plamida natijalar o'zining o'rniga egaligi tufayli, ularni qishloq turizmi klaster modelini rivojlanish to'plam integral ko'rsatkichi hisob-kitobi asosida birlashtirish mumkin:

$$\mathbf{R}_{de} = (\sum \mathbf{T}_s \times \mathbf{R}_{di}) / \mathbf{n}, \quad (2)^{15}$$

Bunda R_{de} - qishloq turizmi klaster modelini rivojlanish to'plam integral ko'rsatkichi; T_s - qishloq turizmiga turistlarning talabini baholashda s- mezon miqdori; R_{di} – mavsum davrida hisoblanadigan sayyohlarni miqdor ko'rsatkichlari bo'yicha koeffitsientlar; n- koeffitsientlar soni.

Demak, qishloq turizmi klaster modelini rivojlanish to'plam integral ko'rsatkichlaridan kelib chiqib, qishloq turizmi klaster modeli tarkibida faoliyat yuritayotgan turistik firmaning xarajatlarini samaradorligini (E_x) quyidagi nisbat asosida aniqlashni amalga oshirsak maqsadga muvofiq bo'lishi mumkin:

$$\mathbf{E}_x = \mathbf{E}_i / \mathbf{E}_x \quad (3)^{16}$$

Bunda olingan natijani E_x quyidagi ko'rinishda taklif etish mumkin:

$$\mathbf{E}_i = (\mathbf{T}_c \times \mathbf{D} \times \mathbf{T}_p) - \mathbf{E}_x \quad (4)$$

T_c – qishloq turizmi sayyohlari soni; qishloq turizmi turpaket narxi, so'm; D – qishloq turizmiga bo'lgan talab koeffitsienti.

Qishloq turizmi klasterini yaratishdan maqsad - bu alohida turistik firmalarning qishloq turizmi turistik xizmatlarini ko'rsatishning yagona tizimiga birlashtirish va markazlashtirishdir. Bu tizim boshqa turistik resurslarni ham o'z ichiga olishi kerak: muzey va tarixiy obyektlar, dam olish, madaniyat, ovqatlanish, xalq hunarmandchiligi, sayyohlik va transport xizmatlari.

¹³ Tadqiqotlar natijasida muallif tomonidan ishlab chiqilgan

¹⁴ Muallif tomonidan taklif etilayotgan "qishloq turizmi klaster modelini rivojlanish koeffitsienti"

¹⁵ Muallif tomonidan taklif etilayotgan "qishloq turizmi klaster modelini rivojlanish to'plam integral ko'rsatkichi"

¹⁶ Muallif tomonidan taklif etilayotgan "qishloq turizmi klaster modeli tarkibida faoliyat yuritayotgan turistik firmaning xarajatlarini samaradorligini hisoblash formulasi"

Bundan tashqari, boshqa manfaatdor obyektlarni, ya'ni fermer xo'jaliklari, qishloq xo'jaligi korxonalari, maktablar va boshqalarni klasterga kiritish maqsadga muvofiqdir. Natijada, qishloq turizmi klasteri hududiy turistik bozor infratuzilmasini mustahkamlashga yordam beradi va mahalliy iqtisodiyotning o'sishida muhim rol o'ynaydi.

Ushbu model mamlakatimizda qishloq turizmini rivojlantirish va tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish natijasida milliy turizmni eng istiqbolli yo'nalishlari sifatida shakllanishiga xizmat qiladi, ya'ni:

1. Marketing tadqiqotlari, qishloq turizmini tegishli bozor segmentlarini tahlil qilish va jahon bozorini hisobga olgan holda hududning mavjud ixtisoslashuvi va resurs salohiyatiga muvofiq mahsulot va qishloq turistik xizmatlarining istiqbolli turlari aniqlanadi;

2. Prognoz bosqichi (tanlangan turxizmatlar bo'yicha bozor tendensiyalari). Ushbu bosqichda qishloq turizmining hududiy, respublika va jahon ishlab chiqarish narxlari dinamikasi va hajmlarini o'rta va uzoq muddatli prognozlashga amalga oshiriladi;

3. Qishloq turizmi klaster yadrosini (turxizmat ko'rsatish) yaratishga qodir korxonalar faoliyati samaradorligini aniqlash. Ushbu bosqichda tegishli turistik korxonalar va tashkilotlarning moliyaviy barqarorligi va faoliyati samaradorligi ko'rsatkichlari tahlil qilinadi;

4. Qishloq turizmi klasterini rivojlantirish uchun resurslar mavjudligini aniqlash. Istiqbolli turistik resurslar va boshqa imkoniyatlar bilan ta'minlangan turistik korxonalar tahlil qilinadi;

5. Qishloq turizmi klaster faoliyati uchun zarur bo'lgan infratuzilma elementlarini yaratish imkoniyatlarini tahlil qilish. Klaster infratuzilmasi salohiyati (qishloq joylarda transport, logistika, energetika, axborot) tahlil qilinadi.

6. Qishloq turizmi klasterining salohiyatli ishtirokchilari (turistik xizmat ko'rsatuvchilar, ta'minotchilar) o'rtasidagi o'zaro ta'sir darajasini aniqlash. Ushbu yakuniy bosqichda istiqbolli turistik korxonalar va tashkilotlar rahbarlarining anketa so'rovi asosida klasterning salohiyatli ishtirokchilari o'rtasida o'zaro hamkorlik darajasi aniqlanadi.


Qishloq xo'jaligining sanoat majmuasi korxonalari, dehqon-fermer xo'jaliklari va hududiy qishloq turizmi klasterlar faoliyatini diversifikatsiya qilishni rivojlantirish natijasida qishloq joylarda aholi bandligini ta'minlashga, balki qishloq hududlarining noyob turistik resurs salohiyatidan oqilona foydalanishga yordam beradi.

Xulosa qilib aytganda, qishloq turizmi klasterini har qanday geografik joylashuvi darajasida viloyat, shahar va qishloq hududlari bo'yicha ajratish mumkin. Turizm sohasini an'anaviy tarmoqlar nuqtai nazaridan emas, balki klasterlar nuqtai nazaridan o'rganish (masalan qishloq turizmi klaster modeli), turizm tarmoqlarining o'zaro bog'liqligi va uyg'unligini, innovatsion texnologiya, investitsiya, axborot va kasbiy ko'nikmalarni tarqatish yo'llarini aniqlashga, shuningdek, davlat ko'magiga muhtoj zaif bo'g'inlarni aniqlashga imkon beradi.

Dissertatsiyaning «**Hududlarda qishloq turizmini rivojlantirishni tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish usullari va ustuvor**

yo‘nalishlari» nomli uchinchi bobida turizm xizmatlar bozorini rivojlantirishda hududlarda qishloq turizmining turistik oqimni oshirish modellarini shakllantirish asoclab berilgan, shuningdek, hududda qishloq turizm infratuzilmasini takomillashtirish usullari hamda qishloq turizmini rivojlantirish istiqbol ko‘rsatkichlari ishlab chiqilgan va ilmiy asoslangan.

